

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ СТАТИСТИКА ҚЎМИТАСИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ



СТАТИСТИКА

СОҲАСИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР: МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

МАВЗУСИДАГИ
РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
АНЖУМАН

2020 ЙИЛ 20 ОКТЯБРЬ

ТОШКЕНТ



**«Статистика соҳасидаги ислохотлар: муаммолар ва ечимлар».
Республика илмий-амалий конференция илмий мақола ва тезислари
тўплами (2020 йил 20 октябрь). – Т.: «ТДИУ», 2020. – 367 б.**

Илмий-амалий конференция тезислар тўпламига магистрантлар, илмий тадқиқот ишларини олиб бораётган изланувчи ва тадқиқотчилар, мазкур соҳа мутахассислари ҳамда профессор-ўқитувчиларнинг илмий ишлари киритилган.

Ушбу илмий-амалий конференциянинг асосий мақсади Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 августдаги ПҚ-4796 сонли “Ўзбекистон Республикасининг миллий статистика тизимини янада такомиллаштириш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ва ушбу қарор билан тасдиқланган 2020-2025 йилларда Ўзбекистон Республикаси статистикасини ривожлантиришнинг МИЛЛИЙ СТРАТЕГИЯСИнинг асосий қоида ва вазифаларини кенг жамоатчиликка тушунтириш ҳисобланади.

Шунингдек, замонавий талаблар ва халқаро стандартларга тўлиқ жавоб берадиган тараққий этган ва илғор статистика тизимига интеграциялашиш, муқобил ахборот манбалари ва маъмурий маълумотлар ҳисобига респондентларга бўлган ҳисобот юқини сезиларли даражада пасайтириш ва натижада статистика маълумотларининг сифатини янада оширишга қаратилган тавсия ва таклифлар ишлаб чиқиш ҳисобланади.

Ўзбекистонда статистика соҳасини ривожлантириш истиқболлари, унда МҲТ ва бошқа халқаро андозаларга мос келувчи миллий статистика ишланмалари ва кузатувлари каби долзарб масалалар ёритилган бўлиб, у профессор-ўқитувчи, илмий изланувчи, тадқиқотчи ҳамда магистрантларнинг илмий изланишларида фойдали бўлади.

Конференция Ўзбекистон Республикаси Давлат Илмий-техник дастурларининг Тошкент давлат иқтисодиёт университетида 2018-2020 йилларга бажарилаётган ОТ-Ф1-154 “Миллий иқтисодиёт таркибий ўзгаришининг ялпи ички маҳсулот ўсишига таъсирини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш” мавзусидаги амалий лойиҳа доирасида ўтказилди.

М а с ъ у л м у х а р р и р :

А.Х. Аюбжонов, и.ф.н., доц.;

Т а х р и р х а й њ а т и :

М.П. Эшов, и.ф.д., доц;
А.У. Бурханов, и.ф.д., проф.;
Т.Ш. Шодиев, и.ф.д., проф.;
Д.М. Расулев, и.ф.д., проф.
Х.Н. Набиев, и.ф.д., проф.;
З. Акбарова, и.ф.н., доц.;
А.А. Набиходжаев, и.ф.н., доц.;
М.А. Умарова, и.ф.н., катта ўқитувчи;
М.Ш. Ахмедова, катта ўқитувчи;
Б.Ш. Акбарова, катта ўқитувчи.

Т а қ р и з ч и л а р :

Тошматов З.Х., и.ф.д., проф.,
Хўжакулов Х.Д., и.ф.н., проф.

Мазкур тўпلامга киритилган маъруза тезисларининг мазмуни, ундаги статистик маълумотлар ва меъёрий ҳужжатлар санасининг тўғрилиги ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.

© Тошкент давлат иқтисодиёт
университети, 2020



M.A.Sadikova,
TDIU, “Korporativ boshqaruv”
kafedrası assistenti

PANDEMIYA KELTIRIB CHIQRARGAN GLOBAL INQIROZNING SALBIY OQIBATLARINI O’ZBEKISTON SHAROITIDA STATISTIK BAHOLASH VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O’ZBEKISTONDA QO’LLASH YO’LLARI

Annotatsiya: SARS CoV-2 virusi tufayli kelib chiqqan iqtisodiy inqiroz hozirgi kunda butun dunyo hamjamiyatiga jiddiy xavf solmoqda. Bu inqiroz keltirib chiqaradigan iqtisodiy talofatlarni O’zbekiston sharoitida yumshatish uchun hukumatimiz tomonidan bir muncha chora-tadbirlar qo’llanilmoqda. Kelajakda bunday pandemiyaning qaytalanishi ehtimoli yuqoriligini hisobga olgan holda, inqiroz sharoitida iqtisodiyotni elastikligini ta’minlash bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch iboralar: inqiroz, iqtisodiyot, pandemiya, virus, karantin, budjet tanqisligi, masofaviy ta’lim, kapital, foydali ish koeffisienti, tijorat banklari, qarzdorlik, valyuta oqimi, kredit, daromad, savdo.

Annotation: the economic crisis caused by the SARS CoV-2 virus is now a serious threat to the entire world community. Some measures are being taken by our government to mitigate the economic losses caused by this crisis in the conditions of Uzbekistan. Given the high probability of the recurrence of such a pandemic in the future, proposals and recommendations have been made to implement measures to ensure the elasticity of the economy in the conditions of crisis.

Keywords: crisis, economy, pandemic, virus, quarantine, budget deficit, distance learning, Capital, profitable business coefficient, commercial banks, borrowing, currency flow, credit, income, trade.

Аннотация: экономический кризис, вызванный вирусом SARS CoV-2, в настоящее время представляет серьезную угрозу для всего мирового сообщества. Для смягчения экономических последствий, вызванных этим кризисом, в условиях Узбекистана правительством страны предпринимается ряд мер. Учитывая высокую вероятность повторения такой пандемии в будущем, были даны рекомендации и предложения по реализации мер по обеспечению эластичности экономики в условиях кризиса.

Ключевые слова: кризис, экономика, пандемия, вирус, карантин, дефицит бюджета, дистанционное образование, капитал, коэффициент прибыльности бизнеса, коммерческие банки, задолженность, валютный поток, кредит, доход, торговля.

2020 yilda boshlangan global iqtisodiy inqiroz Xitoyda kelib chiqqan SARS COVID-19 virusi sababli yuz bergani barchamizga ma’lum. Xitoyning Uhan



provinsiyasida paydo bo'lgan virus jadal sur'atlarda butun Xitoyni qamrab olib, epidemiyadan qisqa muddat ichida global pandemiyaga aylandi.

Hozirgi kunga qadar, iqtisodiy inqirozlar turli moliyaviy instrumentlarning nobarqarorligidan kelib chiqqan bo'lsa, joriy davrdagi inqirozni yuzaga kelishi tamomila o'zgacha omillarga asoslangan. Bu inqirozning boshqalaridan farqi, bunda inson omili sabab bo'lib, ongli ravishda insoniyat salomatligini saqlab qolish niyatida, davlatlar vaqtinchalik iqtisodiy daromaddan voz kechishiga to'g'ri keldi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) 2020 yil keng tarqalgan pandemiyani urushga qiyoslamoda va uning "urush" davri kamida bir chorakdan ikki chorakgacha davom etishini prognoz qilmoqda. Jamg'arma ekspertlarining xulosasiga ko'ra, koronavirus inqiroziga qarshi kurashish "urush davrida"gi chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Ko'pgina davlatlarda karantin choralari qo'llanilib, hattoki ba'zi davlatlarda komendantlik soatlari joriy etildi. Ya'ni deyarli barcha mamlakatlar chegaralari yopildi, xalqaro va shaharlararo reyslar to'xtatildi. Xususan, O'zbekistonda yirik savdo komplekslari, o'quv dargohlari, sport inshootlari, ko'ngilochar maskanlar, maishiy hizmat ko'rsatish shahobchalari, qurilish materiallari, kiyim-kechak va buyum bozorlari vaqtincha to'xtatildi. Insonlarga faqatgina oziq-ovqat savdosi va dori vositalarini xarid qilish uchun uydan chiqishga ruhsat berildi.

Muhim bo'lmagan korxonalar va tashkilotlar faoliyati vaqtincha to'xtatilib, odamlarning uyda qolishlari talab etilmoqda. Bunday og'ir sharoitda aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik vakillarini qo'llab-quvvatlash doirasida soliq-byudjet va pul-kredit siyosati sohalarida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tijorat banklari tomonidan turistik operatorlarga, mehmonxona biznesi sub'yektlariga, transport-logistika kompaniyalariga va turizm tarmog'ining boshqa korxonalariga, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalariga joriy etilgan cheklovlar tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga ajratilgan kreditlar bo'yicha umumiy summasi 5 trln. so'mlik qarzdorliklarni to'lashni (jarima sanksiyalarini hisoblamagan holda) 2020 yil 1 oktyabrga qadar kechiktirishga ruxsat berildi. Chunki, karantin sharoitida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritilishi va ba'zi bir korxonalarining faoliyatini vaqtinchalik to'xtatilishi tijorat banklariga bosimni kuchaytirmoqda hamda aholi va tadbirkorlik vakillari kredit to'lovlari bo'yicha muammolarga uchramoqda.

Bunday qiyin sharoitda XVJning bergan tavsiyalar Markaziy bank tomonidan o'z vaqtida, maqsadli va kelishilgan holda amalga oshirilayotgan mazkur chora-tadbirlar mamlakatimizning koronavirus inqirozidan katta talofatlarsiz chiqib ketishida muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Zero, XVJ ekspertlari markaziy banklar inqiroz davrida jiddiy, ammo vaqtinchalik zarbalarga uchragan qarz oluvchilar va iqtisodiy sektorlar uchun kredit portfellari bo'yicha to'lovlarni qayta rejalashtirishda faol bo'lishlari uchun tijorat banklari bilan aniq va tushunarli aloqa qilishlari kerakligini tavsiya etishmoqda. Shuningdek, bunday og'ir vaziyatda regulyatorning vazifasi banklarning kapital va likvidlilik buferlarini hisobga olgan holda iqtisodiyotni kreditlash faoliyatlarini davom ettirishini ta'minlash bo'lishi



lozimligini ta'kidlashmoqda. Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan 2020 yil aprel-sentyabr oylarida so'ndirilishi lozim bo'lgan 4,7 trln. so'm miqdoridagi kreditlar muddati uzaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 mart kuni koronavirus pandemiyasi va global inqirozli hodisalarning iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida farmon qabul qilindi. **Hujjatga asosan, Inqirozga qarshi jamg'arma tuzilib, unda 10 trillion so'm shakllantiriladi.** Yuqoridagi tadbirlarni muhim ahamiyatga egaligi va o'z vaqtida yo'lga qo'yilganligi ma'lum miqdorda salbiy iqtisodiy oqibatlarni yumshatishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotda rasman maosh oladiganlar soni 5,6 million, mehnatga layoqatli insonlar soni esa 19 millionni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, tahminan 5,5 million inson norasmiy sektorda band deb hisoblanadi. Ya'ni rasman maosh oladigan insonlar bilan, norasmiy bandlar (asosan kunbay daromad topadigan insonlar) soni deyarl bir xil. Bunday inqirozlarning salbiy ta'siri esa asosan norasmiy sektorda ishlovchi insonlarda ko'proq namoyon bo'ladi.

AQSH hukumati ham pandemiya olib kelgan iqtisodiy inqiroz tufayli vaqtincha ishsiz, yordamga muhtoj oilalarga va bizneslarga yordam berish maqsadida 2,2 trillion dollarlik yordam dasturi qabul qildi. Unga ko'ra, har bir ishsiz odam uchun oyiga \$1200 dollardan yordam puli, bolalar uchun esa 500 dollardan mablag' bank hisob raqamiga tushirildi yoki chek ko'rinishida egalariga topshirildi. Demak, ikki farzandga ega 4 kishilik oilaga \$3400 pul berildi. Ishsizlik nafaqalarini olishga 26 million inson ariza topshirgan. Bu hattoki Buyuk depressiya paytidagi ko'rsatkichlardan ham ancha yuqori.

O'zbekiston bilan deyarli bir xil daromadli Hindistonda esa muhtoj aholi qatlamiga ikki hafta uchun \$7 pul mablag'lari berish yo'lga qo'yilmoqda.

Pandemiya dunyodagi barcha davlatlarning iqtisodiyotiga sezilarli zarar keltirdi. Shunga qaramay, Germaniya iqtisodiyoti ancha yaxshi ko'rinadi. uning eng yaqin yevropalik hamkorlari - Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Ispaniya. Karantin choraklari uchun YaIMning pasayishi bu mamlakatlarga qaraganda ancha past edi, yilning uchinchi choragida uning tiklanishi ancha yaxshi bo'lishi kutilmoqda.

Shuningdek, ilgari qayd etilgan omillar, ya'ni ishlab chiqarish hech qachon to'xtatilmagani va ishchilarning hukumat aralashuvi tufayli qo'lga kiritilgani Germaniya mashinasozlarining boshqa mamlakatlarga nisbatan kuchli holda ekanini bildiradi. Umuman, Germaniya boshqa mamlakatlarga qaraganda yaxshi shaklda bormoqda. Germaniyaning kuchli iqtisodiyoti Yevropa Ittifoqiga a'zo boshqa mamlakatlar uchun, xususan, Yevropada qo'shimcha qiymatning kuchli rivojlangan chiziqlariga nisbatan iqtisodiy dvigatel sifatida xizmat qilishi mumkin. Germaniya iqtisodiyotining tezkor yuksalishi IITning boshqa mamlakatlarida talab uyg'otmoqda. Shuningdek, Germaniyaning yuqori kredit qobiliyati EO byudjeti va EOB balansi uchun ishonchli tayanch bo'lib, boshqa mamlakatlarga Yevropa o'z



iqtisodiyotini yanada ta'sir ko'rsatmasdan, masalan, moliya bozorlarida qayta ishga tushirishi kerak.

Tarixdan ma'lumki, rivojlangan davlatlarga nisbatan rivojlanayotgan davlatlar bunday iqtisodiy inqirozlarda ko'proq talofat ko'radi. Chunki mamlakatning eksportdan tushadigan valyuta tushumi pasayadi, import mahsulotlar narxi keskin ko'tariladi, rivojlangan davlatlardan kapital oqimi to'xtaydi. Kelajakda bunday pandemiyalar kelib chiqish va qaytalanish ehtimoli yuqoriligini va uni nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga balki, jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, inqirozlar paytida yuqoridagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab quvvatlashga xizmat qiladi. Bu omillarni inobatga olgan holda, quyidagi shaxsiy taklif va tavsiyalar inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishga xizmat qiladi:

- vaqtincha ishsiz, muhtoj oilalar uchun moddiy yordam berish (pul mablag'lari plastik karta ko'rinishida);
- mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovarlarni QQS va aksiz soliqlaridan ozod qilish;
- dori vositalarini rasmiylashtirishni soddalashtirish va bojxona to'lovlaridan ozod etish;
- ta'lim tizimida, xususan maktablar, akademik litsey, kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida masofaviy o'qitishda innovatsion tuzilmalarni yo'lga qo'yish, masofaviy ma'ruza va seminar-treninglarni tashkillashtirish uchun milliy platformalarni yaratish;
- o'quvchi va talabalarni baholashda virtual jurnallarni joriy qilish, baholashni shaffofligini ta'minlash uchun monitoring qilish;
- oliy ta'lim muassasalarida barcha mutahassisliklar bo'yicha masofaviy o'qitish fakultetlari, kafedralarini tashkil etish;
- xodimlarni foydali ish koefisientini ish joyiga vaqtli kelib, kech ketishiga qarab emas, balki ish samaradorligiga qarab baholash, ish joyida bo'lishi shart bo'lmagan mutahasislarni uydan turib ishlashini ta'minlash va zarur shart-sharoit yaratib berish;
- tijorat banklaridan kredit olish, rasmiylashtirish jarayonlarini online tarzda amalga oshirishni ta'minlash.
- Pandemiya keltirib chiqargan global inqiroz sharoitida ham iqtisodiyoti o'sayotgan yagona davlat Germaniya hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda Germaniya tajribasidan foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyotini inqirozlar sharoitida ham o'sishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qabul qilingan PF-5969-son, 19.03.2020 va PF-5978-son, 20.04.2020 farmonlari